

*Toshkent viloyati Bekobod shahar
3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”
fani o'qituvchisi
Hatamqulov Nazarqulning
2014-yil “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat
asoslari” fani oyligida 8-sinfda
“Jamoat tuyg'usi” mavzusida 2014-yil
16-dekabrda o'tgan bir soatlik
DARS ISHLANMASI*

Sana: 16.12.2014-y.

Sinf: 8-sinf

Fan: “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”.

Mavzu: “Jamoa tuyg’usi”.

Dars maqsadi:

a) ta’limiy maqsad:

- o’quvchilarga jamoa tushunchasini tub mohiyatini tushuntirib, jamoani tarix taraqqiyoti yo’lini, xalqimizga xos xususiyat va barcha yutuqlar asosi ekanligini tushuntirish.

b) tarbiyaviy maqsad:

- o’quvchilarga kishilar orasidagi ahillik tinch-totuv yashash, ezgu maqsadlar uchun bir jamoa bo’lib birga harakatlanish natijalarini tushuntirish.

s) Rivojlantiruvchi maqsad:

- Vatanimiz katta bir jamoa ekanligi, mustaqillik yillarida bir maqsad yo’lida rivojlanib borayotgan, jahon hamjamiyatida erishayotgan yutuqlarimizni o’rgatish.

Prezidentimiz asari: “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari.

Darslik “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”.

Dars jihozi: O’zbekiston va Jahon haritasi, doska, bo’r, vatman va markerlar, stendlar.

Texnik vositalar: proyektor.

Dars tipi: aralash.

Dars turi: noan’anaviy.

Dars metodi: “Aqliy hujum”, “Savol-javob, tezkor test”.

Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari: mehr-oqibat, mehr-shavqat, qadr-qimmat, hasher, induviduallik.

I. Tashkiliy qism: (3 daqiqa). Assalomu alaykum aziz o’quvchilar, yo’qlama qilinadi.

- dunyoda sodir bo’layotgan asosiy voqealarga to’xtalib, yaqinlashib kelayotgan 21-dekabrdagi Oliy Majlis qonunchilik palatasiga va xalq deputatlariga saylovlar kuni haqida ma’lumot beriladi.

II. Uy vazifasini so’rash (15 daqiqa).

- savollarga javoblar olish;
- kartochkalar tarqatiladi (5 o’quvchiga);
- test savollari (4 o’quvchiga).

Savollar:

1. Din bu nima va qanday g'oyalarga xizmat qilib kelgan?
2. Prezidentimizning din haqida aytgan fikrlari?
3. Dinlar aro bag'rikenglikka erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
4. Qanday xavf-xatarlar dinlarni ezgulik yo'lida birlashishga undamoqda?
5. Mamlakatimiz hududida qadimdan hamkorlikda yashab kelyotgan qanday dinlarni bilasiz?

Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari

9-sinflar uchun test

1. Birovga kutilmaganda xujum qilib, unga zarar yetkazish nima deyiladi?

A. Jaroxat B. Razolat S. Tajovuz D. Talofat

2. "Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi" va "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlari fan sifatida qachon ta'lim tizimiga joriy etilgan?

A. 1998 yil 28 oktyabrdan

B. 1998 yil 13 maydan

S. 2001 yil 18 yanvardan

D.1998 yil 27 yanvardan

2 Milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bilim va tasavvurlar nimalarni shakllantirishga xizmat qiladi?

A. Milliy madaniyat va san'atni

B. Salomatlik sirlarini to'g'ri o'zlashtirishni

S. Faqat milliylikni

D. Yuksak dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, mafkuraviy immunitetni

4. Madaniy rivojlanish degan ma'noni bildiradigan so'zni toping.

A. Sivilizasiya

B. Modernizsiya

S. Deklorasiya

D. Intefasiya

5. Inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazadigan qurollar qanday nomlanadi?

A. Jangovor qurollar

B. Royaviy qurollar

S. O'quv qurollar

D. Metodik qurollar

6. To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Mangurberdi kabi ajdodlarimizni jangga otlantirgan kuch?

- A. Boylikka bo'lgan muxabbat
- B. Egallab turgan xududni kengaytirish
- S. Yurt muxabbati, yurtga sadoqat ruxi
- D. O'zga xalqni qaram qilish niyati

7. Sog'lom e'tiqod, yuksak dunyoqarash maxsuli

- A. Fidoiyluk
- B. Zamonaviyluk
- S. Vatanparvarlik
- D. Qaxramonlik

Shu savollar yozma shaklda – darslarda faol qatnashmaydigan, darslarda o'zini yaxshi tutolmaydigan 5 ta o'quvchiga yozma javob berish orqali faolikka tortiladi va javobi baholanadi.

III. Yangi dars mavzu doskaga yozib qo'yiladi: - tushuntirish – (20 daqiqa)

Mavzu: Jamoa tuyg'usi.

Atamalar: Vatmanga, ya'ni doskaga yozib qo'yiladi.

O'qituvchi yangi mavzuga to'xtalib tushuntirishni boshlaydi.

- Milliy g'oyamiz, ma'naviyatimiz xalqimizning qalbi va ruhini unga xos eng muhim xususiyatlarini: doskadagi

atamalar, mehr-oqibat, qadr-qimmat, meht-shavqat, mehr-muhabbat tushunchalari xalqimizga xos xususiyatlar asrlar davomida shakllanib kelganligiga – o'quvchilar diqqatini qaratadi va Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridagi 7-8 betdagi so'zlarni o'qib beradi:

- Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarsi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Masalan, sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga xech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Asrlar davomida xalqimizning dunyoqarashi, negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarimizshakllangan. Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch” asarlarida takidlangan so’zlar

- Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo’lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko’rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo’shnining qo’shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg’un bo’lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sahovat ko’rsatish, sidqidildan, beg’araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma’naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

O’rta Osiyo xalqlari qadimda daryo va anhorlar bo’yida yashab, tabiatning o’zi ota – bobolarimizda birga jamoa bo’lib yashashiga majbur qilgan. Chunki daryolarni to’sib suvni kanl va anhorlarga, dalalarga chiqarish uchun odamlar jamoa bo’lib birgalikda mehnat qilishgan, dehqonchilik bilan shug’ullanishgan.

Jamoaviylik tamoyillari bugungi kunga qadar hayotimizda katta o'rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida mahalla tashkilotining qayta tiklanib, unga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idorasi maqomi berilgan jamoaviylik bilan bog'liq an'ana va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizning turmush tarzimizdan yanada keng o'rin olishida alohida kasb etmoqda.

Individuallik faqat bir insonga xos xususiyat va belgilar ifadasi bo'lib, inson uchun bu ham eng zarur fazilatdir. Lekin individuallik o'ziga bino qo'yish, o'zini boshqalardan ustun deb bilish, faqat shaxsiy manfaatni o'ylab yashashga aylanib ketadigan bo'lsa. Insonning o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham zararlidir.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 7 ta savoldan iborat tezkor test mashqi o'tkaziladi: (5 daqiqa, test savollar tarqatiladi).

V. Baholarni e'lon qilish. (1 daqiqa)

VII. Uyga vazifa: 50-54 betlar. Mavzu oxiridagi savollarga javob topib kelish (1 daqiqa).

